

HOKIM VA YOSOLAR UCHRASHUVI



HOKIM VA YOSOLAR UCHRASHUVI

Bugun, “Amudaryo” bolalar sog’lomlashtirish oromgohida 30 iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan “Hokim va yoshlar uchrashuvi” tashkil etildi.

Unda shahar hokimi yil boshidan buyon turli tanlov va musobaqalarda yaxshi natijalarni qo’lga kiritib kelayotgan mahallalardagi yoshlar yetakchilari, iqtidorli va istedadli yoshlar hamda “Besh tashabbus olimpiadasi”ning respublika bosqichida sportning “Street workaut” turi bo’yicha g’oliblikni qo’lga kiritgan yoshlar va ularning ota-onalari bilan uchrashdi. Uchrashuvda hokim yoshlarni 30-iyun yoshlar kuni bilan qizg’in tabriklab, ular bilan dildan suhbatlashdi.

Jarayon davomida kuni kecha o’tkazilgan “Fidoi yoshlar yetakchisi” Respublika ko’rik-tanlovining Termiz shahar bosqichida g’oliblikni qo’lga kiritgan yoshlar yetakchilariga printer va turli tanlov va musobaqalarda g’oliblikni qo’lga kiritgan sportchi yoshlarga esa zamonaviy kompyuter jamlanmalari shahar hokimi tomonidan topshirildi.

Shuningdek, uchrashuvda bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida Qonun loyihasi muhokamasi borasida ma'lumotlar berildi.

Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown

